

O'SMIRLAR O'RTASIDA AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIHNING PEDAGOGIK DIAGNOSTIKALASH VA KORREKSIYALASH USULLAR

Nabiyev Navro'z G'ulo'ljonovich

Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar pedagogik muammo sifatida tahlil etilgan bo'lib, ularni oldini olishning pedagogik diagnostikalash va korreksiyalash usullari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmagan, jinoyat, jamiyat, refleksiv fikr, korreksiya, diagnostika, ijtimoiy muammo, hissiy intellekt, huquqiy tarbiya, tarbiyaviy metod, jinoyatchilik, Ijtimoiy integratsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ И КОРРЕКЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРОФИЛАКТИКИ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Абстрактный. В статье анализируются преступления, совершаемые несовершеннолетними, как педагогическая проблема, а также рассматриваются педагогические диагностические и коррекционные методы их профилактики.

Ключевые слова: Несовершеннолетний, преступление, общество, рефлексивное мышление, коррекция, диагностика, социальная проблема, эмоциональный интеллект, правовое образование, образовательный метод, преступность, социальная интеграция.

PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC AND CORRECTIONAL METHODS OF PREVENTING CRIME AMONG ADOLESCENTS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES

Abstract. In this article, crimes committed among minors are analyzed as a pedagogical problem, and pedagogical diagnostic and correctional methods of preventing them are studied.

Keywords: Minor, crime, society, reflective thinking, correction, diagnostics, social problem, emotional intelligence, legal education, educational method, criminality, Social integration.

KIRISH

“O'smirlar o'z his-tuyg'ulari va kechinmalarini to'liq tushunmasdan yoki nostandart vaziyatlarda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lmagan holda notanish muhitda, ijtimoiy vaziyatlarga moslashuv davriga

duch keladi". Globallashuv va raqamlashuv davrining o'smirlar ta'limi va tarbiyasiga ta'siri, o'smirlik davridagi fiziologik va psixologik o'zgarishlar ularning ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchanligini oshirish, huquqiy bilimlardan xabardorligini oshirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoiy xulq-atvor tendensiyalarini aniqlash, profilaktika choralari sifatini oshirish zarurati ortib bormoqda [1].

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishi ko'p jihatdan ijtimoiy vaziyatlarning o'zgarib borishi natijasidir. Davom etayotgan globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy jarayonlarga tez moslashishi, milliy o'ziga xoslik va qadriyatlar, milliy g'urur tuyg'usining yetarli emasligi, mas'uliyat va javobgarlik ko'mikmalarini shakllanmaganligi natijasida jinoyatlar sonining ko'payishiga olib keldi [2]. Mazkur holatlar nafaqat kriminologiya sohasida balki ta'lim tizimida ham dolzarb masalaga aylandi.

Binobarin, bugungi Renessans davri navqiron avlod oldida turgan muammolarni bartaraf etish, ularning o'z qadriyatlarini tushunadigan sodiq fuqarolar bo'lib ulg'ayishiga ko'maklashish, kamol topishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish ustuvir vazifa sifatida belgilab olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishning pedagogik-psixologik tizimini takomillashtirish, umumta'lim maktablarida o'quvchilar o'rtasida ma'naviy immunitetni shakllantirish, jinoyat va huquqbuzarliklarni bartaraf etish nafaqat profilaktika choralari, balki pedagogik diagnostika va korreksion faoliyatni ham qo'llashni taqozo etadi. Bugungi sharoitda dolzarb vazifadir" [3].

"Profilaktikadan farqli o'laroq, diagnostika va korreksion faoliyat shaxslarning yosh toifalari va ijtimoiy sharoitlari asosida ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlari ishtirokida o'tkaziladi". Aksiologik yondashuvlar orqali o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan pedagogik diagnostika va korreksion faoliyat usullarini muhokama qilishdan oldin "pedagogik diagnostika" va "pedagogik korreksiya" atamalariga aniqlik kiritish zarur deb hisoblaymiz.

Pedagogik diagnostika turli pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'smirlarning bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. U o'quvchilarning o'quv jarayonini baholash orqali ularning rivojlanish darajasini aniqlash va ta'lim jarayonini tashkil qilishni yaxshilashga qaratilgan [3]. Bu jarayon o'quvchilarning turli ta'lim darajalaridagi yutuqlari va muammolarini aniqlash imkonini beradi, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik diagnostikaning rivojlanishi 20-asrning boshlariga to'g'ri kelib, buning rivojiga nemis pedagogi va faylasufi Karl Yaspers sezilarli ta'sir ko'rsatdi [100]. Yaspers psixologiya va pedagogika bo'yicha chuqur tadqiqotlari orqali shaxs rivojlanishidagi ijtimoiy va psixologik omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidladi. Uning g'oyalari ta'limda individual yondashuvni rivojlantirish uchun zamin yaratdi. Keyinchalik pedagogik diagnostika psixologlar va pedagoglar tomonidan keng o'rganilib, takomillashtirildi. Pedagogik diagnostikaning ilmiy asoslari L.S.Vigotskiy [4], J.Piaje [5], A.N.Leontev [6] kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning tadqiqotlari sohaga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Lev Vygotskiy "proksimal rivojlanish zonasi" tushunchasini kiritib, bolaning bilimini baholashda ularning hozirgi tushunchasi va kelajakdagi o'sish potentsiali o'rtasidagi farqni o'lchash kerakligini taklif qildi [7]. Bu konsepsiya pedagogik diagnostikada o'quvchilarning imkoniyatlarini aniqlash va individual yondashuvlarni qo'llash imkonini berdi.

Jan Piaget bolalar tafakkurining rivojlanishini turli bosqichlar orqali tushuntirib berdi. Uning izlanishlari pedagogik diagnostikada yoshga mos ta'lim jarayonlarini yaratishga asos bo'ldi. Piaget rivojlanishning alohida bosqichlarini (sensorimotor, operatsiyadan oldingi, aniq operatsion va rasmiy operatsion) aniqladi va har bir bosqich uchun turli xil ta'lim usullari zarurligini ta'kidladi [5].

Aleksey Leontev bolalarning bilimlarini o'zlashtirishga e'tibor qaratgan holda faoliyat nazariyasini ishlab chiqdi. U o'quvchilarning faollik ko'rsatkichlarini baholash orqali diagnostika qilish usulini rivojlantirgan [8].

Pedagogik korreksion faoliyat deganda o'quvchilarning o'quv jarayonida duch keladigan qiyinchilik va muammolarni aniqlash, baholash va bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmui tushuniladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini oshirishga qaratilgan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish sharoitida pedagogik diagnostikani turli usullar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. "Maktab psixologi, xotin qizlar bo'yicha maslahatchi, ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, yoshlar yetakchisi, hududiy profilaktika inspektori, sinf rahbari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari yil davomida o'tkaziladigan ijtimoiy-psixologik-profilaktik tadbirlar rejasini ishlab chiqishi, o'quv yilini oylarga bo'lish va har oy uchun muayyan tadbirlarni tashkil etish zarur".

Masalan, reja quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: sentyabr: "Maktab muhitini o'rganish" oyi ushbu oy davomida o'quvchilar haqida ma'lumot to'plash, natijalarni tahlil qilish va o'quvchilar ro'yxatini tuzish uchun "Shaxsiy xususiyatlarni o'rganish" diagnostika metodikasi qo'llaniladi [3]. Har bir sinfda bo'sh o'zlashtiruvchi, noto'liq oila, nosog'lom oilada yashaydigan o'quvchilarga tasniflanadi. Mazkur toifaga kiruvchi o'quvchilarning oilaviy ahvoliga oid ma'lumotlar to'planadi. Sinf rahbarlari, mahalladagi yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik portfoliosi ishlab chiqiladi.

O'quvchilarning ijtimoiy-psixologik portfoliosi - bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini, hissiy intellektini va psixologik rivojlanishini kuzatish va baholash uchun mo'ljallangan dastur [9]. Ushbu portfolio o'quvchilarning shaxsiy va maktab muhitida shaxslararo munosabatlarini yaxshilashda, shuningdek, ularning psixologik salohiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu ijtimoiy-psixologik portfolioning asosiy komponentlari:

1. Kirish ma'lumotlari: Bu bo'lim o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini (ismi, familiyasi, sinfi, o'qituvchisi) va ularning ijodiy ishlarida foydalaniladigan muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

2. Ijtimoiy ko'nikmalar: o'quvchilarning jamoada ishlash, muloqot qilish, yetakchilik va hamkorlikdagi qobiliyatlarini baholashga qaratilgan ma'lumotlar. Bu

ma'lumotlar, sinf faoliyati, o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy nizolar va ularni hal qilish imkonini beradi [10].

3. Hissiy intellekt: o'quvchining o'z his-tuyg'ularini tan boshqarish, boshqalarni tushunish va muloqot jarayonida ijobiy aloqalarni o'rnatish qobiliyatini baholovchi ma'lumotlar.

4. Refleksiv fikrlash: o'quvchilarga o'z tajribalari, muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari haqida o'z fikrlarini ifoda etish imkonini beruvchi asosiy komponent.

5. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarda ishtirok etish: Bu o'quvchilarning ijtimoiy muammolar, an'analar, madaniyatlar va jamoat voqealari bilan o'zaro munosabati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [11].

O'quvchining ijtimoiy-psixologik portfolioidagi maqsad va vazifalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsadlar ijtimoiy ko'nikmalarni oshirish, hissiy intellektni yaxshilash yoki shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi mumkin. Portfolioni shakllantirishda ma'lumotlarni to'plashda o'quvchilardan suhbatlar, so'rovnomalar, didaktik o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar orqali to'planishi kerak. Bu o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini va hissiy intellektini baholashga yordam beradi. Yig'ilgan ma'lumotlar o'quvchilarning o'zaro munosabatlari, his-tuyg'ulari va ijtimoiy ko'nikmalarini tahlil qilish orqali baholab boriladi. O'quvchilarga o'zgarishlarni baholash va his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatini berish kerak. Ular o'z portfoliolarida bajarilgan faoliyat va ishlar haqida o'z fikrlarini baham ko'rishlari kerak.

Portfolioni sinfda yoki maktabda taqdim etish orqali o'quvchilar o'z tajribalari va bilimlari bilan bo'lishishlari kerak. Bu jarayon ularga tajriba va bir-birlari bilan taassurot almashish imkonini beradi.

Portfolioning ta'lim jarayonidagi afzalliklaridan biri sifatida ta'limni individuallashtirishni ya'ni o'quv jarayonini o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik portfoliolari orqali shaxsiylashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga oladi. Portfolio ruhiy bosimlarsiz faoliyat va ta'lim olishga, hamda oila va maktab muhitida o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Portfolio yordamida ularning

muammolarini aniqlash va hal qilish uchun turli yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin.

Portfolioni tayyorlash jarayonida o'quvchilar muloqot qilishni va ijtimoiy masalalar bilan faol shug'ullanishni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning ijtimoiy-psixologik portfoliosi, ularning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga yordam beruvchi muhim vositadir. Ushbu portfolio orqali ta'lim jarayonida individual yondashuvni taklif etish, o'quvchilarga o'zlariga nisbatan yanada chuqurroq tushuncha berish va ijtimoiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirish imkonini beradi. Natijada, bu jarayon o'quvchilarni zamonaviy ijtimoiy hayotga tayyorlaydi va ularning shaxsiy hayotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

"Ta'lim jarayonida o'rganishdagi qiyinchiliklar va o'quvchilar duch keladigan muammolarni hal qilish maqsadida maktab rahbarlari, inspektor-psixologlar va jamoatchilik vakillari, ota-onalarni jalb etgan holda davra suhbatlarini tashkil etish, "Maktab-oila-jamoa hamkorligi" doirasida umumta'lim maktablarida o'tkazilayotgan pedagogik diagnostik haftaliklarida ota-onalar va pedagoglar o'rtasida ijobiy va konstruktiv muloqotni rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari o'tkazish ijobiy samara beradi".

O'smirlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish uchun "Maktab-oila-jamoa hamkorligi" muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi ishlari, jamoatchilik va maktab o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash orqali o'smirlarning salbiy xulq-atvorini kamaytirishga yordam beradi. Pedagogik diagnostik haftaliklar mazkur jarayonni kuchaytirish va ijobiy muloqotni rivojlantirish maqsadida hududiy profilaktika inspektori, psixolog inspektor ishtirokida o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish ideal mexanizm hisoblanadi [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кочергина И.Г. Технологии инклюзии в системе дошкольного образования и воспитания // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. 2016. Том 5. № 6А. С. 150-158.

2. Abdullayeva Sh.A Pedagogik diagnostika va korreksiya. - Toshkent: "Fan va axborot texnologiyalari", 2019. B. 280.
3. Ермаков В.Д. Социально-правовая профилактика правонарушений связанных с недостатками семейного воспитания. -М.: Педагогика,С.35-37
4. Karl Jaspers: An introduction to His philosophy. Book. Mart 8. 2015-y
5. Barrouillet, Pierre (2015). „Theories of cognitive development: From Piaget to today“. Developmental Review.
6. Леонтьев В.Г. Психологические механизмы мотивации / В.Г. Леонтьев.-Новосибирск: НГПИ, 1992. – С.58.
7. Зарипов З.С., Исмаилов И. Криминология: Умумий кием. Дарслик / ю.ф.д, проф. Ф. Абдумажидов тахрири остида. -Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 1996. - 227 бет.
8. Абдурасулова К-Р- Криминология: Дарслик. Масъул мухаррир: ю.ф.д., проф. М.Х-Рустамбоев. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2008. — 101 (305) бет
9. N.Ismoilov. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolari. -Т.: 2007, 75-b
10. Эшназаров М.Ж. Хукукбузарликларнинг махсус профилактикасини такомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида). Юридик фанлар буйича фалсафа доктори(РШ). Илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертatsiya. - Т., 2022. - Б 128
11. Хужакулов С.Б. Хукукбузарликлар умумий профилактикасини такомиллаштириш (ички ишлар органлари фаолияти мисолида). Юридик фанлар буйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Т., 20 18. - Б. 42-44